

**ABDURAHMON JOMIY VA ALISHER NAVOIY IJODIDA GUMANIZM
G'oyalari**

Mamadaliyeva Feruza Asrorovna

Gumanitar fanlari kafedrasi dotsenti

Mashrabjonova Maftuna

Yordamova Mashhura

Toshkent davlat agrar universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10631320>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharqning ulug' mutafakkirlari Alisher Navoiy va uning ustozni, do'sti Abdurahmon Jomiy asarlaridagi insonparvarlik g'oyalari aks etirilgan. Qolaversa, lirik shoirlarning ijodidan eng yaxshi namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, xulq, insonparvarlik, mutafakkir, tafakkur, vahdat –ul-vujud.

**IDEAS OF HUMANISM IN THE CREATIONS OF ABDURAHMAN JAMI AND
ALISHER NAVAI**

Abstract. This article reflects the ideas of humanitarianism in the works of the great thinkers of the East, Alisher Navoi and his teacher, friend, Abdurahman Jami. In addition, the best examples of the works of lyric poets are presented.

Key words: Alisher Navoi, Abdurrahman Jami, character, humanitarianism, thinker, thinking, unity-ul-wujud.

**ИДЕИ ГУМАНИЗМА В ТВОРЕНИЯХ АБДУРАХМАНА ДЖАМИИ И
АЛИШЕРА НАВАИ**

Аннотация. В данной статье отражены идеи гуманизма в творчестве великих мыслителей Востока Алишера Навои и его учителя, друга Абдурахмана Джами. Кроме того, представлены лучшие образцы творчества лириков.

Ключевые слова: Алишер Навои, Абдурахман Джами, характер, гуманизм, мыслитель, мышление, единство-уль-вуджуд.

Ko'hna tariximizdan ayonki, ajdodlarimiz inson zotini yuksaklikka ko'targanlar, uni tirik mavjudotlar orasida eng a'losi deb hisoblaganlar. Ajdodlarimizning mukammal jamiyat, odil va ma'rifatli shoh, komil inson haqidagi qimmatli fikrlari hozirgacha o'z qadrini yo'qotmasdan, insoniyatga xizmat qilmoqda. Kishi yuksak fazilatlar va qadriyatlarni egallamasdan, o'zida insonga muhabbat tuyg'usini shakllantirmasdan, go'zal xulqli, odobli, insonparvar bo'lmasdan turib yetuk shaxs, komil inson bo'lib yetishushi qiyin.

Bizlarga boy adabiy-ilmiy meros qoldirgan ajdodlarimizdan biri - Alisher Navoiy o'z xulqi, axloqi, ilmi va bilimi bilan jamiyat hayotidagi turli ijtimoiy nohaqlik hamdaadolatsizliklarga qarshi kurashdi, o'z asarlarida ifodaladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, shoirning shaxsiy namuna bo'lganligi o'z navbatida uning asarlaridagi gumanizm va ezzulik g'oyalaringin o'ziga xos talqinini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Hazrat Navoiy asarlarida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsnii tiyish,adolat va ma'rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e'zozlash, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalardan unumli foydalandi. Bu g'oyalalar mutafakkirning g'azal va ruboylari, dostonlari, nasriy asarlariga singib ketgan.

Alisher Navoiy "Xamsa" si XV asrdagi xalqimiz manaviy taraqqiyotining ko'zgusi bo'lib, "Xamsa" uning shoh asaridir. Unda o'sha davr turmushi, xalq hayoti, din va diyonat, odob va axloq haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan, shuningdek, o'z navbatida boshqa "Xamsa" lardan farq qilgan alohida xususiyatlar asosida bo'lgan insoniylik va boshqa ezgulik g'oyalarining talqiniga ega. Navoiy "Xamsa"si bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langan beshta dostonni o'z ichiga oluvchi yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Mundarijaviy doston bo'lmish "Hayratul-abror"da shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlari doir savollarni qo'yib, keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob berishga intiladi. "Xamsa"da buyuk mutafakkirning olam va odam, tabiat, kishilik jamiyat, umr va uning mazmuni haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlari, ijodkor sifatidagi buyuk salohiyati, u qo'llagan badiiy timsollar, tashbehu tamsillar vositasida butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi.

Navoiy "Xamsa" si uning dunyoqarashini yaxlit bir tizim sifatida namoyon qilib, uning markazida, shubhasiz, inson, odamiylik konsepsiysi, adlu insof, sahovat va muhabbat haqidagi fikr-o'ylari, ezgulikka payvasta buyuk tafakkur olami yotadi. Uning ijodidagi eng asosiy insonparvarlik va ezgulik g'oyalarining o'ziga hoslik tomoni shundaki, u o'zi yashagan davrgacha faoliyat yuritgan barcha mutafakkir va ijodkorlardan farqli o'laroq ilohiylik va dunyoviylik tamoyilini uyg'unlashtira oldi. Ilohiy g'oyalar, timsollar uning uchun inson hamisha intiladigan ideal olam bo'lsa, dunyo shu ideal olamning ko'zgusi, ibrat hamda saboq maydoni. Zero, insonda koinotning, ilohiy olamning hikmatlari, mohiyati aks etgan. Ayniqsa, bu boradagi qarashlar "Hayrat ul-abror" dostonining asosini tashkil etadi. "Neki olami kubroda bor-olami sug'roda bor", deydi Alisher Navoiy ushbu dostonida. Olami kubro - katta olam, ya'ni koinot, borliq. Olami sug'ro - kichik olam, ya'ni inson. Bunday qarash aslida Odam Atoning yaratilishi haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Odam Ato, Qur'oni Karimda ayttilishicha, tuproqdan yaratilib, keyin unga Alloh o'z ruhini yuborib, jon ato etadi. Demak, inson modda va ruh yoki tabiat va ilohdan vujudga kelgan. Shu bois inson ziynatining o'zida ma'joz va haqiqat, ilohiylik va dunyoviylik mujassam.

Bu olam yagonaligi haqidagi vahdat ul-vujud ta'limotiga muvofiqdir. Ya'ni:

"O'z vujudungg'a tafakkur aylagil,

Har ne istarsan, o'zungdin istagil".

Shunga ko'ra, inson avvalo o'zini, keyin Alloh yaratgan jamiki ilmu hikmat, ma'rifatma'naviyatini bilib, o'z Xoliqini tanib, musaffo ruh holida qayta vahdoniyatga qo'shilmog'i darkor. Shu yo'lda inson axloqi poklanadi va u komillik darajasiga ko'tariladi.

Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhuratini dunyo miqyosiga olib chiqdi.

Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan.

Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya

qildi. U inson uchun zarur bo‘lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o‘rgandi, asar qahramonlari obrazida o‘z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo‘lishga da’vat etadi hamda axloqni bunday ta’riflaydi: “ Axloq shaxsning og’ir baqolig’ libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir”.

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi:

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g’amidin g’ami.

Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko‘ngil odamlarni Alisher Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta’riflaydi.

El ochsa birovdin el yomoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni.
Fe’l ichra ulus bolam joni bil oni,
Olam elining yomoni yomon bil oni.

Insonlar bir-birlari bilan do‘stingiz va hamjihat bo‘lib yashamas ekanlar, o‘z orzuniyatlariga yeta olmaydilar, yakkalik, yolg’izlik bilan hech qanday ish qilib bo‘lmaydi, shuning uchun ham u hamma insonlarni do‘stingiz bo‘lib yashashga chorlaydi. Alisher Navoiy do‘slikni ulug’laydi, shu bilan birga soxta, g’araz bilan do‘stingiz bo‘luvchi kishilarni qoralaydi.

Navoiy kishi bilimga ega bo‘lishi uchun oz-ozdan o‘rganib borishi lozimligini, bilimlari yig‘ilib ma’lum ko‘nikmaga ega bo‘lishi mumkinligini yozadi va buni tomchi-tomchi sivlar yig‘ilib daryoga aylanishiga o‘xshatadi.

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitnish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Ushbu jumlalarda birinchi ustoz haqida gap boradi. Ilk ustoz tolibiga savod chiqarishida ko‘maklashadi, bu bilan uning hayot yo‘lini- to‘g’ri yo‘lni belgilab beradi. Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham to‘lay olmaslikni Navoiy shu ikki misrada bayon qiladi.

Aytish lozimki, Navoiy insonga tanbehi berar ekan, avvalo o‘z hayotiy kuzatishlariga asoslanadi. Pok e’tiqodi, ijtimoiy qarashlari taqozosiga ko‘ra mulohaza yuritadi. Ulug’ inson tafakkurining hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan xulosaviy fikr -mulohazalari xalqning “Yaxshiga yondosh, yomondan qoch”, “yaxshi bilan yurding yetding murotga, yomon bila yurding, -qolding uyatga”, “Yaxshi odam yo‘ldoshidan bilinar”, “Do‘sting kimligini aytsang, sening kimligingni aytaman” kabi maqollar bilan butunlay mushtarakdir.

Uyg‘oq qalb sohibi nazdida yaxshi inson yoki yaxshilik tushunchasining ma’nosi nihoyatda keng bo‘lib, unda imon va etiqod, odat va hayo kabi inson zotini bezaydigan go‘zal fazilatlar jamuljam bo‘lgan. Odamiylikning mezoni bu faqat o‘zi uchun emas, balki, o‘zgalar manfaati , xalq g’am- tashvishi bilan yashashdir. Binobarin, axloq targ‘ibotchisining navbatdagi tanbehi ham yaxshilik xususida:

“Baxlning andoqli, butun topqoni zaxira bo‘lg‘ay, tong va qabri ham bu kungi maoshi uyidek tiyra bo‘lg‘ay. Zuhdu taqvo barcha vaqtida dilpisanddur, ulug’lar nazarida arjumandroq .

Yaxshiliq va yomonliqni kim qildikim, jazo ko‘rmadi. Saloh va fasod tuxmin kim ekdikim, o‘rmadi”.

Shoir insonga xos qusurlar va hislatlar haqidagi fikrini quyidagi bayt bilan yanada oydinlashtiradi va qissadan hissa chiqaradi: Yaxshiliq tuxmin sochg‘ilkim budur dehqong‘a so‘z, Har nekim ekding bugun borin hamon tut oning ko‘z.

Navoiyning umuminsoniy mazmunga ega bo‘lgan gumanistik qarashlari islom dini falsafasidan oziqlangan bo‘lib, mutafakkir o‘zining asarlarida insonning diniy va dunyoviy jihatlari, zohiriylari va botiniy tomonlarini har tomonlama yoritib berishga harakat qilgan. Navoiy insonni aqlsiz tasavvur qilmaydi. Inson qanday ish bilan shug‘ullanmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga ishonishi kerak, degan fikr mutafakkir asarlarining muhim jihatini tashkil qiladi.

Mutafakkirning yana bir muhim xususiyati, bizning fikrimizcha, shundan iboratki, ul zot o‘zining g‘azal, ruboyi va dostonlarida insonparvarlikka oid qarashlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, odamiylikda boshqalarga o‘rnak bo‘ldi. U doimo oddiy xalq g‘am-tashvishiga sherik bo‘ldi, ularga homiylik qildi.

Alisher Navoiy va Jomiy bir davrda yashagan do‘stlar edi. Mashhur matnshunos olim Porso Shamsiyev “Jomiy va Navoiy” majmuasining majmuasining muqaddimasida yozgan edilar: “chin insoniy xislatlardan sabot, matonat, g‘ayrat, tolmas, mehnatkashlik bu ikki do‘stning mushtarak xususiyatlari bo‘lib qoldi. Bu mushtarak xususiyat bulardagi buyuk ijodiy kuch va mahoratning deyarli bir mezonda borganligida ko‘rinadi. Jomiy biror asar yozsa, biringchi galda Navoiyga taqdim etar, kerak miqdorda isloh etishni, kamchilik va nuqsonlarni ko‘rstaib berishni talab etar edi. Navoiy Jomiyni o‘ziga madakor, qiynganida mushkullarni hal qiluvchi va ishlarga rag‘batlantiruvchi ulug‘ homiy va murabbiy deb bilar edi”.¹

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo‘lib, ularda shoir islom dini va sharq falsafasining bir qator masalalarini o‘z qarashicha talqin etadi, tasavvufning XV asrdagi yirik arbobi sifatida o‘z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning Naqshi fusus („Ma’nolar naqshi“), Shavohidi nubuvva („Payg‘ambarlikka dalillar“), (“Sharhi qasidayi „Toiya (“Radifda „to“ harfidan foydalanib yozilgan qasida sharhi”), Naqdi nusus („Matnni tanqid“), “Sharhi qasidayi „Hamriya („Hamriya“ qasidasi sharhi“), Naqshbandiya ta’limoti haqida risola, Vohid“ atamasi haqida risola“, “Zikr shartlari haqida risola”), Haj qilish yo‘llari haqida risola kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin. Jomiy falsafasining asosini tasavvufiy g‘oyalar tashkil etadi. Uning tasavvurida Xudo jonli mavjudot bo‘lmay, yorug‘ nur ko‘rinishiga ega. Hamma narsani yaratgan yagona Xudo go‘zal ma’shuqaga o‘xshagan bo‘lib, minglarcha oynada turli qiyofada va ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. U yunon faylasufi Yaloximnning jilolanish („emanatsiya“) falsafasini davom ettiradi va yanada rivojlantiradi. Uning fikricha, dunyodagi hamma narsalar kelib chiqishi va mohiyati e’tibori bilan ilohiydir.

Xulosa qilib aytganda, mutafakkirlar Jomiy va Navoiyning hayotda qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga, og‘ir qismatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, “Xamsa”sining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug‘orilgan. Mutafakkirlar insonparvarlik tushunchasiga ijtimoiy mazmun beradi. Ushbu

¹ П.Шамсиев. Улуг‘ дўстлик лавхаларидан. Жомий ва Навоий (тўплам). Тошкент, «Фан», 1966

dostonida kamtarlik, vafodorlik, nafsni tiyish, rostgo'ylik, saxiylik, donolik, muhtoj va yetim-yesirlarga yordam berish, bag'rikenglik, muloyimlik, shirinsuxanlik, shijoatkorlik, ezgulik, mehr-muruvvat, rahmdillik, odamiylik - bularning hammasi insonparvarlikning tarkibiy qismi bo'lib, insonni kamolot sari, ezgulikka yetaklaydi.

REFERENCES

1. Karimov I.A.YUksak ma'naviyat — yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat,2008.
2. Karimov I.A.Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. .-T.: O'zbekiston, 2009.
3. Karimov I.A. Inson, uning xuquq va erkinliklari oliy qadriyat.XIV-jild.- T.:“O'zbekiston”, 2006
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. T.:“Fan”, 2002
5. Badriyev F., Xudoyberdiyev A. Alisher Navoiyning “Farhod va SHirin” dostoni haqida// Til va adabiyot ta'limi. 2011, 8-son.
- 6.Qayumov A. Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). -T.: Kamalak,1991.
6. Navoiyning ijod olami. T., 2001.
7. Hayitov SH. Kaykovus va Alisher Navoiy talqinida qalb tarbiyasi. . Til va adabiyot ta'limi. 2005 yil 2-son, 84-bet
8. Navoiy, Alisher. Xamsa: Hayratul-Abror, Farhod va SHirin, Layli va Majnun, Sab'ai sayyor, Saddi Iskandariy.--T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.- 423 b.